



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 405 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуюловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуюловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamsiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	
Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati.....	307
Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi	
Yangi O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyoti: qiyosiy tahlilning asosiy tendentsiyalari	313
Ro'ziyeva Dilfuza Toshmurovna	
Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning muammolari va uni bartaraf etish yo'nalishlari.....	318
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi qo'shni hududlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlantiruvchi omillari	323
Sattarov R.A.	
Desentralizatsiyalangan ma'lumot almashish protokollari: IPFS, Filecoin va Arweave tahlili	328
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Transport xizmatlari ko'rsatish biznes-jarayonlarini raqamli transformasiya talablari asosida takomillashtirish.....	333
Komilov Asror Akmalovich	
Empowering the Future: Assessing the Role of Automation, Internet of Things (IoT), and Demand Management in Enhancing Energy Efficiency of Smart Grids.....	338
Khakimjanova Surayyo Khabibullayevna	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari (xalqaro va mahalliy misollar)	345
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish	352
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi	
Mijozlar tajribasini yaxshilashda raqamli integratsiya strategiyalari: "O'zbektelekom" AK tajribasi.....	358
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari.....	361
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish omili sifatida: Yevropa tajribasi.....	368
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda kichik biznes va mahalla hamkorligi modellarini takomillashtirish	373
Murotov Nodir Xujamqulovich	
Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil.....	378
Alimov Azizbek Alievich	
Bankrotlik xavfini tahlil qilish modellari.....	386
Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich	



Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni oshirishni takomillashtirish yo'llari.....	393
Burxonova Nargiza Mirshohid qizi	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida bank tizimi islohotlari va ularni boshqarish strategiyalari.....	400
Hamroyev Xurshid Jalilovich	



IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA BANK TIZIMI ISLOHOTLARI VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Hamroyev Xurshid Jalilovich

BDTU mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: Shabjam1097@gmail.com

Annotatsiya: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilish va boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish moliya sektorining barqarorligi, raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada milliy va xalqaro tajribalar asosida bank sektoridagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari, boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari orqali bank tizimining modernizatsiya jarayonidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, islohotlar, boshqaruv strategiyalari, iqtisodiy modernizatsiya, moliyaviy inklyuziya, raqamli texnologiyalar, risk-menejment.

Abstract: In the context of economic modernization, reforming the banking system and improving management strategies are key factors in enhancing the stability, competitiveness, and efficiency of the financial sector. Based on national and international experience, the article analyzes the main directions of banking sector reforms, the improvement of management mechanisms, and their impact on economic growth. Special emphasis is placed on the role of digital technologies, the expansion of financial inclusion, and modern risk management approaches in the process of banking system modernization.

Key words: banking system, reforms, management strategies, economic modernization, financial inclusion, digital technologies, risk management.

Аннотация: В условиях модернизации экономики реформирование банковской системы и совершенствование стратегий управления являются важными факторами повышения устойчивости, конкурентоспособности и эффективности финансового сектора. В статье на основе национального и международного опыта анализируются основные направления реформ в банковском секторе, совершенствование механизмов управления и их влияние на экономический рост. Особое внимание уделено роли цифровых технологий, расширению финансовой инклюзии и современным подходам к управлению рисками в процессе модернизации банковской системы.

Ключевые слова: банковская система, реформы, стратегии управления, экономическая модернизация, финансовая инклюзия, цифровые технологии, риск-менеджмент.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot jarayonida bank tizimi mamlakat moliya infratuzilmasining markaziy bo'g'ini sifatida iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Globallashtirish, raqamli transformatsiya va moliyaviy bozorlardagi raqobat sharoitida milliy bank tizimini modernizatsiya qilish, uning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, bank sektorini isloh qilish bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari banklarning kapitallashtirish darajasi, likvidiligi hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

Bank boshqaruvi nafaqat moliyaviy resurslar harakatini tartibga solish, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali kreditlash siyosatini amalga oshirish, risklarni boshqarish va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish orqali modernizatsiya jarayonlarining moliyaviy poydevorini mustahkamlaydi. Bunda strategik rejalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, boshqaruv strategiyalarining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, milliy va xalqaro tajriba



asosida ishlab chiqilgan takliflar tahlil qilinadi. Shu orqali bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish, barqaror moliyaviy rivojlanishni ta'minlash va iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konseptual yondashuvlar yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimini isloh qilish va boshqarish masalalari iqtisodiy modernizatsiya kontekstida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, Frederic S. Mishkin bank tizimining makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini tahlil qilib, samarali moliyaviy vositachilik iqtisodiy o'sishni tezlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bank boshqaruvi strategiyalarini modernizatsiyalash raqobatbardoshlikni oshirish va moliyaviy resurslarni optimal taqsimlashga xizmat qiladi.

Rossiyalik olim V. I. Kolpakov iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bank sektorida strategik menejment tizimini joriy etish zarurligini ta'kidlab, banklarning risklarni boshqarish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish va kapital yetariligidini ta'minlash mexanizmlarini alohida o'rganadi. Shuningdek, u zamonaviy bank boshqaruvi inson kapitalining malakasini oshirish va korporativ boshqaruv standartlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq ekanini qayd etadi.

O'zbekiston olimlaridan A. I. G'ulomov milliy bank tizimini isloh qilish jarayonida moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv darajasi va kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining ahamiyatini yoritadi. Unga ko'ra, 2017-yildan boshlab olib borilgan moliya sektori islohotlari banklarning kapitallashuv ko'rsatkichlarini oshirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish imkonini berdi.

Xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan Patrick Honohan va Thorsten Beckning tadqiqotlari bank tizimini modernizatsiya qilishning institutsional asoslarini keng yoritadi. Ular bank sektorida islohotlarni amalga oshirishda moliyaviy inklyuziya, shaffoflik va bozor intizomini kuchaytirish ustuvor omillar sifatida ko'rsatadi.

Shuningdek, Demirgüç-Kunt va Levine tomonidan olib borilgan keng qamrovli tahlillar bank tizimining samarali ishlashi uchun qonunchilik bazasini kuchaytirish, moliya bozorlarida sog'lom raqobatni rivojlantirish va moliyaviy vositachilik xarajatlarini kamaytirish zarurligini asoslaydi. Ularning izlanishlarida bank sektorining iqtisodiy modernizatsiya jarayonidagi transformatsion roli alohida ta'kidlanadi.

Yevropa Markaziy banki ekspertlari ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimi islohotlarining muvaffaqiyati moliya institutlari faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli innovatsiyalarni joriy etish va mijozlar ishonchini oshirish bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi bank tizimi islohotlari va boshqaruv strategiyalariga oid ma'lumotlarni rasmiy statistika, Markaziy bank hisobotlari, xalqaro moliya institutlari nashrlari va ilmiy maqolalardan yig'ish hamda ularni qiyosiy va tahliliy usullar yordamida qayta ishlashga asoslandi. Ma'lumotlar tendensiyalar, o'zaro bog'liqliklar va dinamik o'zgarishlarni aniqlash uchun iqtisodiy-statistik tahlil orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni har bir davlat uchun strategik vazifa bo'lib, u moliya sektorining, xususan bank tizimining barqaror ishlashini talab qiladi. Banklar iqtisodiyotning "qon tomir" tizimi sifatida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va investitsiya faoliyatining moliyaviy ta'minotini amalga oshiradi. Shu boisdan bank tizimini isloh qilish nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning ham asosiy sharti hisoblanadi. Modernizatsiya sharoitida bank boshqaruvi strategiyalari ham yangicha yondashuvlarni talab etadi, chunki raqamli iqtisodiyot, global raqobat va moliyaviy bozorlarning integratsiyasi bank faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda.

Bank tizimi islohotlari bir necha asosiy omillar bilan shartlangan. Birinchidan, iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonlari yangi investitsiya talablarini yuzaga keltiradi, bu esa banklarning moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Ikkinchidan, global moliya tizimiga integratsiya jarayonida banklar xalqaro standartlarga moslashishi, kapitallashuv darajasini oshirishi va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishi lozim. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va innovatsion moliyaviy xizmatlar bozor sharoitida banklar faoliyatini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda.

O'zbekiston tajribasida 2017-yildan boshlab bank tizimida qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha yangi normativ talablar joriy qilindi, davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish strategiyasi e'lon qilindi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaytirildi. Bu jarayonlar natijasida xalqaro reyting agentliklari tomonidan bir qator banklarning reytingi ijobiy tomonga o'zgardi, bu esa xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda.



Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan prudensial me'yorlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, kredit risklarini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Masalan, Basel III talablariga mos kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha talablar bosqichma-bosqich kuchaytirildi. Shu bilan birga, banklar faoliyatida risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish, ichki audit va komplayens bo'limlarini kuchaytirish ishlari olib borildi.

Islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi – moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdir. Bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini oshirish maqsadida raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar va masofaviy identifikatsiya tizimlari joriy qilindi. Bu nafaqat aholiga qulaylik yaratdi, balki iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini ham oshirdi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi¹

Ko'rsatkichlar nomi	01.07.2024 y.		01.07.2025 y.		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	493 952	100%	575 245	100%	16%
Sanoat	139 179	28%	157 600	27%	13%
Qishloq xo'jaligi	51 635	10%	58 031	10%	12%
Qurilish sohasi	12 383	3%	15 213	3%	23%
Savdo va umumiy xizmat	35 680	7%	40 035	7%	12%
Transport va kommunikatsiya	34 050	7%	33 544	6%	-1%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3 289	0,7%	4 002	0,7%	22%
Uy-joy kommunal xizmati	2 269	0,5%	2 077	0,4%	-8%
Jismoniy shaxslar	161 071	33%	196 890	34%	22%
Boshqa sohalar	54 395	11%	67 852	12%	25%

Keltirilgan so'nggi statistik ma'lumotlar ham tijorat banklari kredit siyosatida diversifikatsiya jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi. 2024-yil 1-iyul holatiga jami tijorat banklari kredit qo'yilmalari 493 952 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-iyulga kelib bu ko'rsatkich 575 245 mlrd so'mga yetib, 16 foiz o'sish qayd etilgan. Sanoat sohasi kreditlari 13 foizga oshgan bo'lsa-da, ulushi 28 foizdan 27 foizga pasaygan. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan kreditlar 12 foizga o'sib, ulushi 10 foiz darajasida saqlangan. Qurilish sohasida 23 foizlik yuqori o'sish qayd etilgan, savdo va umumiy xizmatlar sektori 12 foizga o'sgan holda 7 foizlik ulushini saqlab qolgan. Transport va kommunikatsiyada 1 foiz pasayish kuzatilgan, uy-joy kommunal xizmatlari esa 8 foiz kamaygan. Jismoniy shaxslar segmentida 22 foiz o'sish bilan ulush 33 foizdan 34 foizga oshgan, boshqa sohalarida esa 25 foizlik o'sish kuzatilib, ulush 12 foizga yetgan. Ushbu dinamikalar ayrim tarmoqlardagi qisqarishlar asosan jismoniy shaxslar va boshqa sohalar segmentlarining o'sishi hisobiga yuz berganini ko'rsatadi.

Bank boshqaruvi – bu faqat moliyaviy oqimlarni nazorat qilish emas, balki strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, risklarni boshqarish va innovatsion imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlaydigan tizimdir. Modernizatsiya sharoitida bank boshqaruvi strategiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda takomillashmoqda.

Birinchiidan, strategik rejalashtirish va diversifikatsiya. Banklar daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish, xalqaro moliya bozorlariga chiqish orqali o'sish strategiyalarini shakllantirmoqda. Bu jarayonda uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqiladi va ular bozor sharoitidagi o'zgarishlarga mos ravishda yangilanadi.

Ikkinchiidan, risklarni kompleks boshqarish tizimi. Raqobat kuchayishi, moliyaviy bozorlardagi noaniqliklar va iqtisodiy sikllarning ta'siri sharoitida risk-menejment tizimi bank boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Kredit, likvidlik, valyuta va operatsion risklarni baholash va minimallashtirish bo'yicha xalqaro tajribaga asoslangan metodlar joriy qilinmoqda.

1 <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2642239/>



Uchinchidan, inson kapitali va korporativ boshqaruvni rivojlantirish. Bank xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy menejment yondashuvlarini tatbiq etish va korporativ boshqaruv standartlarini joriy qilish orqali xizmatlar sifati hamda mijozlar ishonchini oshirish maqsad qilingan. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruvning shaffofligi va samaradorligi banklarning bozordagi obro'sini mustahkamlaydi va kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiya. Fintex yechimlarini joriy etish, blokcheyn asosida to'lov tizimlarini rivojlantirish, sun'iy intellekt yordamida kreditlash va mijozlarni segmentlash jarayonlarini optimallashtirish bank boshqaruvi samaradorligini oshirmoqda. Bu esa nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki xizmat ko'rsatish tezligini va aniqligini oshiradi.

Beshinchidan, mijozga yo'naltirilgan strategiya. Zamonaviy bank boshqaruvida mijoz ehtiyojlari va ularning moliyaviy xatti-harakatlarini chuqur o'rganish asosida shaxsiylashtirilgan xizmatlar paketlarini taklif etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Big Data tahlili va prediktiv modellash bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Bank tizimini isloh qilish va boshqaruv strategiyalarini modernizatsiya qilish bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlardir. Islohotlar orqali yaratilgan normativ-huquqiy va institutsional asoslar boshqaruv strategiyalarining samarali amalga oshirilishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, samarali boshqaruv strategiyalari islohotlarning natijadorligini oshiradi, chunki ular bozor sharoitiga moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Masalan, davlat ulushini qisqartirish va xususiy kapitalni jalb etish bo'yicha islohotlar banklarda strategik menejmentni kuchaytirishga, bozor talablariga moslashishga va resurslardan samarali foydalanishga undaydi. Xuddi shunday, raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid davlat dasturlari banklarda innovatsion boshqaruv yondashuvlarini keng qo'llashga imkon beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bank tizimi islohotlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, siyosiy barqarorlik va moliya bozorlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Masalan, Janubiy Koreya va Polsha tajribalari shuni ko'rsatadiki, bank tizimini modernizatsiya qilishda xorijiy kapital ishtiroki, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va qat'iy prudensial nazorat choralari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tajribasida ham so'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali banklar faoliyatiga ilg'or boshqaruv standartlarini joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat sharoitiga moslashtirilgan islohot strategiyalari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bank tizimi islohotlari va boshqaruv strategiyalarini modernizatsiya qilish iqtisodiy modernizatsiya jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bevosita ta'sir – bu real sektor korxonalarini moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayishi, investitsiyalar hajmining oshishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi. Bilvosita ta'sir esa moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi, xalqaro moliya bozorlarida ishonchning ortishi va iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligining oshishi orqali namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilish va boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish uzviy va kompleks jarayon bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va iqtisodiy o'sishni barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilish va boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish mamlakat moliya sektorining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Islohotlar orqali yaratilgan institutsional va normativ-huquqiy asoslar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qilmoqda. Boshqaruv strategiyalarining zamonaviy modelga moslashtirilishi esa bank faoliyatining samaradorligini oshirib, innovatsion mahsulot va xizmatlar bozorini rivojlantirish imkonini bermogda.

Kelgusida sohani rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy xizmatlarning geografik va ijtimoiy qamrovini kengaytirish hamda bank faoliyatida shaffoflikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro reytinglarda milliy bank tizimining pozitsiyalarini mustahkamlash orqali iqtisodiy modernizatsiya jarayoniga qo'shimcha turtki berish mumkin. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish, xodimlarning malakasini oshirish va korporativ boshqaruv tamoyillarini yanada chuqur joriy etish zarur.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bozor intizomini kuchaytirish va risklarni samarali boshqarish tizimini yanada takomillashtirish bank tizimining uzoq muddatli rivojlanishida asosiy omillar bo'lib qoladi. Shu bilan birga, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznes uchun qulay kredit sharoitlarini yaratish va moliya bozorlarida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, bank tizimi islohotlari va boshqaruv strategiyalarini uyg'un rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya jarayoni izchil davom ettiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – Boston: Pearson, 2019. – 736 p.
2. Kolpakov V.I. Стратегический менеджмент в банковской сфере. – М.: Дело, 2016. – 412 с.
3. G'ulomov A.I. Bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 284 b.
4. Honohan P., Beck T. Making Finance Work for Africa. – Washington D.C.: World Bank, 2007. – 252 p.
5. Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance and Economic Growth: Theory and Evidence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 530 p.
6. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. – Hoboken: Wiley, 2022. – 832 p.
7. Saunders M., Cornett M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – New York: McGraw-Hill, 2018. – 832 p.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. – Basel: BIS, 2017. – 92 p.
9. Fabozzi F.J., Modigliani F. Capital Markets: Institutions and Instruments. – Boston: Pearson, 2014. – 648 p.
10. Stiglitz J., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. – American Economic Review, 1981. – 71(3), pp. 393–410.
11. Merton R.C. A Functional Perspective of Financial Intermediation. – Financial Management, 1995. – 24(2), pp. 23–41.
12. Laeven L., Levine R. Bank Governance, Regulation and Risk Taking. – Journal of Financial Economics, 2009. – 93(2), pp. 259–275.
13. European Central Bank. Banking Sector Developments and Reform Priorities in the Euro Area. – Frankfurt am Main: ECB, 2020. – 87 p.
14. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2642239/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
